

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOSEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Yuldasheva Gulnoz**

*Urganch RANCH texnologiya univesiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabasi*

**Maratova Zuhra**

*Urganch RANCH texnologiya univesiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada frazeologik birliklarning til tizimidagi o'rni, ularning leksik birliklardan farqli jihatlari hamda umumiy va xususiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologizmining semantik, struktur va funksional belgilari nazariy manbalar asosida yoritiladi. Frazeologik birliklar tilning obrazlilik va ta'sirchanlik imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim birliklar sifatida qaraladi. Maqolada frazeologizmlarning shakllanishida taqqoshlashning roli, ularning barqarorlik, ko'chma ma'no va emotsional-ekspressivlik kabi belgilariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, umumiy taqqoshlash asosida yuzaga kelgan frazeologik birliklar misollar orqali yoritilib, ularning badiiy nutq va og'zaki so'zlashuvdagi funksiyalari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, frazeologiya, umumiy taqqoshlash, ko'chma ma'no, obrazlilik, barqaror birikmalar, stilistik vosita, emotsional-ekspressivlik, badiiy nutq, til birliklari.

**Аннотация:** В статье анализируется роль фразеологических единиц в языковой системе, их отличия от лексических единиц, а также общие и специфические аспекты. Кроме того, на основе теоретических источников освещаются семантические, структурные и функциональные особенности фразеологии. Фразеологические единицы рассматриваются как важные единицы, расширяющие образные и выразительные возможности языка. Особое внимание уделяется роли сравнения в формировании фразеологии, её особенностям, таким как устойчивость, образное значение и эмоционально-выразительность. Также на примерах освещаются фразеологические единицы, возникающие на основе общего сравнения, и раскрываются их функции в художественной речи и устной коммуникации.

**Ключевые слова:** фразеологические единицы, фразеология, общее сравнение, образное значение, устойчивые сочетания, стилистические средства, эмоционально-выразительность, художественная речь, языковые единицы.

**Abstract:** The article analyzes the role of phraseological units in the language system, their differences from lexical units, and their general and specific aspects. Also, the semantic, structural and functional features of phraseology are highlighted based on theoretical sources. Phraseological units are considered as important units that expand the figurative and expressive capabilities of the language. The article pays special attention to the role of comparison in the formation of phraseology, their features such as stability, figurative meaning and emotional-expressiveness. Also, phraseological units that arise on the basis of general comparison are highlighted through examples, and their functions in artistic speech and oral communication are revealed.

**Keywords:** phraseological units, phraseology, general comparison, figurative meaning, stable combinations, stylistic means, emotional-expressiveness, artistic speech, language units.

Turg'un uyushmali so'zlar haqidagi ta'limot frazeologiya deb ataladi. So'zlarning turg'un uyushmalari ma'no va grammatik qurilishining yaxlitligi, butunligi bilan ham o'ziga xos xususiyatga egadir. So'zlarning turg'un uyushmasi frazeologiyani asosiy o'rganish va tekshirish obyekti.

Frazema til qurilishining lug‘at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo‘lib, bittadan ortiq leksemaning o‘zaro semantik–sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo‘ladi, shunga ko‘ra tuzma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gap shaklga teng bo‘lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilangina emas, mazmun jihati bilan ham farq qiladi. Adabiyotlarda ushbu til birligi frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan ataladi; leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb atalishi ma‘qul. Frazemalar o‘rganiladigan sohani esa frazemika deb nomladik (Adabiyotlarda frazeologiya termini ishlatiladi). [4.:420]

Frazeologiya tilshunoslikning frazeologik birliklarini o‘rganuvchi sohasidir. Frazeologiya termini tilshunoslikda ikki ma‘noda qo‘llanadi: 1) tildagi frazeologik birliklarning jami ma‘nosida va 2) shunday birliklarni o‘rganuvchi soha (fan) ma‘nosida. Ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma‘no ifodalaydigan til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi: qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, og‘zi qulog‘ida, yuragiga sil sig‘maydi, do‘ppisi yarimta, ikki gapning birida, sirkasi suv ko‘tarmaydi, bino qo‘ymoq, o‘takasi yorilmoq kabilar.

Frazeologiya tilshunoslikning ajralmas bir qismi bo‘lib, u tilning frazeologik birliklarini ham tarixiy, ham zamonaviy nuqtai nazarlardan o‘rganadi. Frazeologik birliklarni o‘rinli ishlatish odatda so‘zlovchi va tinglovchi kuchi va vaqtini tejashga ham xizmat qiladi, bu fikmi isbotlash qiyin emas.

Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning ayrimlari gapda ayrim so‘z sifatida, ma‘lum bir sintaktik vazifada keladi.[3.:125]

Odatda onaning **ko‘ngli yumshoq** bo‘ladi. [1.:9] **Ko‘ngli yumshoq** – bu yerda ona har doim mehribon va ko‘ngilchanligini ifodalash uchun berilgan. Bu iborani tez ko‘nuvchan, hissiyotga beriluvchan va gapida qattiq turmaydigan shaxslar uchun ham qo‘llashimiz mumkin.

Salti – **qovog‘idan qor yog‘ib** turgan sovuq so‘fini ko‘rardi.[1.:9] **Qovog‘idan qor yoqmoq** – bu yerda har doim kayfiyatsiz va xomushligini ifodalash uchun keltirilgan. Bu ibora xafa bo‘lish kabi holda ham qo‘llaniladi.

Zebining munga chinakam **achchig‘i kelgan** edi. [1.:21] **Achchig‘i kelmoq** – bu yerda jahli chiqanligini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Bundan tashqari qattiq g‘azablanmoq, qoni qaynamoq kabi ma‘nolarni ifodalashda ham ishlatiladi.

Men **esimni yebman, esimni!..** [1.:45] **Esini yemoq** – bu yerda nimadir qilgan ishidan afsuslanayotganini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Bu iborani aqldan ozmoq, haddan tashqari hayajonlanmoq kabi ma‘nolar uchun ham qo‘llash mumkin.

**Aravani quruq olib qochmoq.** Bu ibora izohi shundayki, uddasidan chiqq olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq. Bu iboraning olib qochmoq, quruq aravani olib qochmoq kabi bir nechta variantlari bor.

**Burnini suqmoq** – bu iboraning izohi aralshmoq, ya’ni kerakmas vaqti biror ishga aralashishni ifodalaydi. Bu iboraning boshini suqmoq, chovisini solmoq kabi variantlari bor.

**Ich-etini yemoq** – bu ibora birovga aytmasdan ruhan azoblanmoq, ezilmoq kabi ma’nolarni ifodalaydi.

**Ipidan ignasigacha** – bu ibora butun tafsilotlari bilan, mayda-chuydasigacha batafsil degan ma’noni anglatadi. Bu iboraning miridan sirigacha, qilidan quyrug‘igacha kabi variantlari bor.

**Og‘zini tanobi qachmoq** – bu ibora behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtirib ololmaslik ma’nosini anglatadi.

**Mum tishlamoq** – bu ibora mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik kabi ma’nolarni ifodalaydi. Og‘ziga talqon solmoq, og‘ziga qatiq ivitmoq kabi iboralar bilan ma’nodosh hisoblanadi.

Maqolada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida va Shavkat Rahmatullayevning “Izohli lug‘ati”da qo‘llangan iboralar asosida olib borilgan tahlillar frazeologik birliklarning badiiy matndagi funksional imkoniyatlarini yaqqol namoyon etdi. Asardagi frazeologizmlar qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati va ijtimoiy muhitni ifodalashda umumiy taqqoshlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu iboralar orqali muallif voqelikni jonli, ta’sirchan va o‘quvchi uchun tushunarli shaklda tasvirlashga erishgan.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar tilning badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytiruvchi, nutqqa obrazlilik va ta’sirchanlik baxsh etuvchi muhim lingvistik vositalardan biridir. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning umumiy taqqoshlash bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinib, ularning ko‘chma ma’no asosida shakllanishi yoritildi. Tadqiqot jarayonida frazeologizmlarning nafaqat til birliklari sifatida, balki milliy tafakkur va madaniyat ifodasi ekanligi ham aniqlandi.

Frazeologizmlarning umumiy taqqoshlash bilan uzviy bog‘liqligi adabiy til rivojida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari frazeologiyani chuqurroq o‘rganish, ayniqsa, badiiy matn tili tahlilida frazeologik birliklardan samarali foydalanish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz (roman). “Ilm-ziyo-zakovat” Toshkent – 2019.
2. Faxri Komil. Hozirgi zamon o‘zbek tili. “O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti. Toshkent – 1967.
3. M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish.
4. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. “Universtitet” nashriyoti. Toshkent – 2006.